

**Yuridik texnikum bitiruvchilarini Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilishda
suhbat o‘tkazish tartibi va baholash mezonlari**

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni yakka tartibdagi suhbat orqali bakalavriat ta’lim yo‘nalishining 2-bosqichidan o‘qishga qabul qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi hamda 2021-yil 22-noyabrdagi 705-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilarini “yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq o‘tkaziladi.

Yakka tartibdagi suhbat **10–25-avgust** kunlari oralig‘ida suhbat komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo‘yicha **bittadan jami to‘rtta** savol beriladi:

- mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

- bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish);

- shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

- tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi.

Yakka tartibdagi suhbat natijalari **100** ballik tizimda ballar qo‘yish yo‘li bilan baholanadi. Har bir savolga mezon bo‘yicha maksimal **25** ballni tashkil etadi.

Jami to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ball **100** ballni tashkil etadi.

Abituriyentlar uchun yakka tartibdagi suhbatni baholash mezonlari:

T/r	Yakka tartibdagi suhbat mezonlari	Maksimal ball
1.	Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishni (davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, shuningdek ijtimoiy soha va boshqa sohalaridagi islohotlar haqida tasavvur va fikrlash qobiliyatining mavjudligi)	25
2.	Ixtisoslikni tanlashda motivatsiya (huquqshunos kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi)	25
3.	Shaxsiy-kasbiy xususiyatlarni (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)	25
4.	Yurisprudensiya sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi (professional ta’limi darajasida yurisprudensiya sohasida o‘z fikrini bayon qilish va tahlil qilish ko‘nikmalarining mavjudligi)	25

Abituriyentlarni qabul qilish quyidagi hollarda amalga oshirilmaydi:

- jadval bo'yicha yakka tartibdagi suhbatga kelmaganda (0 ball qo'yiladi);
- yakka tartibdagi suhbatda 67 balldan kam ball to'plaganda.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni JIDUga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translatsiya qilib boriladi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.